

SUN'IY INTELLEKT VOSITALARI (CHATGPT VA GRAMMARLY)NING O'QUVCHILARDA INGLIZ TILI YOZMA KO'NIKMALARIGA TA'SIRI

Olmonova Mehribon Muxiddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali psixologiya fakulteti filologiya tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi 4-bosqich talabasi

mehribonolmonova@gmail.com

Ilmiy rahbar : Xaydarova Shoira Toxir qizi

shoiraxaydarova@mail.ru

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada sun'iy intellektga asoslangan ChatGPT va Grammarly vositalarining ingliz tili yozma ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni va imkoniyatlari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritiladi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga faol integratsiyalashuvi yozma nutqni o'rgatish metodikasida yangi yondashuvlarni yuzaga keltirdi. Maqolada xalqaro va mahalliy tadqiqotlar tahlili asosida mazkur vositalarning grammatik aniqlik, leksik boylik hamda matn tuzilishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bilan bog'liq metodik va pedagogik cheklovlar ham muhokama qilinadi. Adabiyotlar tahlili ChatGPT va Grammarly yozma ko'nikmalarni rivojlantirishda yordamchi didaktik vosita sifatida muayyan ijobiy imkoniyatlarga ega ekanini, biroq ularni faqat maqsadli va pedagogik nazorat ostida qo'llash zarurligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, ChatGPT, Grammarly, yozma ko'nikma, ingliz tili, raqamli ta'lim*

KIRISH

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalarining jadal rivojlanishi chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'qitish metodikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini individuallashtirish, o'qitish samaradorligini oshirish va o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Ayniqsa, yozma nutqni rivojlantirish jarayonida sun'iy intellektga asoslangan vositalarning qo'llanilishi ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortmoqda. Yozma ko'nikma chet tilini o'rganish jarayonining murakkab va ko'p bosqichli jihatlaridan

biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikma grammatik to'g'rilik, leksik boylik, mantiqiy izchillik va fikrni yozma shaklda aniq ifodalash kabi bir qator lingvistik va kognitiv omillarni o'z ichiga oladi. Yevropa Kengashining CEFR Companion Volume hujjatida yozma nutq til kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, yozma matn sifatini baholashda mantiqiy bog'liqlik, aniqlik va mazmuniy yaxlitlik asosiy mezonlar sifatida belgilangan¹. Sun'iy intellektga asoslangan ChatGPT va Grammarly kabi vositalar aynan yozma nutq bilan bog'liq jarayonlarda faol qo'llanilmoqda. Grammarly dasturi grammatik va stilistik xatolarni aniqlash hamda matn aniqligini oshirishga xizmat qilsa, ChatGPT yozma matn tuzilishini shakllantirish, fikrlarni rivojlantirish va yozma topshiriqlarni modellashtirish imkonini beradi. Ushbu vositalarning ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi yozma ko'nikmalarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va yozma ishlarni baholashda o'qituvchining roli muhimligicha qolmoqda.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt vositalarining yozma nutq sifatini oshirishdagi o'rni turli nuqtai nazarlardan baholanadi. Ayrim tadqiqotlarda ushbu vositalar yozma ishlarning grammatik va strukturaviy sifatini yaxshilashga xizmat qilishi qayd etilsa, boshqa ishlarda esa ularni nazoratsiz qo'llash o'quvchilarning mustaqil yozish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shu bois sun'iy intellekt vositalarining yozma ko'nikmalarni rivojlantirishdagi real o'rni va cheklovlarini ilmiy adabiyotlar asosida tizimli tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi sun'iy intellekt vositalari — ChatGPT va Grammarlyning ingliz tili yozma ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari va cheklovlarini xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilishdan iborat. Maqola yozma nutqni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan maqsadga muvofiq va muvozanatli foydalanish bo'yicha ilmiy-metodik xulosalar chiqarishga qaratilgan.

O'zbekistonda ham ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi davlat siyosati darajasida e'tibor markaziga chiqmoqda. Xususan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida o'tkazilgan "Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha rektorlar forumi"da sun'iy intellektning ta'lim samaradorligini oshirish, o'quv jarayonini individuallashtirish va akademik halollikni ta'minlashdagi o'rni alohida ta'kidlandi.

¹ Council of Europe. *CEFR Companion Volume with New Descriptors*. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020, pp. 58–60.

Mazkur yondashuv sun'iy intellekt vositalarini ta'lim jarayoniga mas'uliyatli va maqsadli integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.²

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi masalasi xalqaro ilmiy tadqiqotlarda muhim mavzulardan biriga aylandi. Ayniqsa, chet tilini o'qitish sohasida AI vositalarining o'rni va ta'siri turli nazariy va amaliy nuqtai nazarlardan o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayon o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini individuallashtirish va o'qituvchining pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq jihatlar orqali yoritiladi. Yevropa Kengashining CEFR Companion Volume hujjatida yozma ko'nikma til kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanib, yozma nutq sifatini aniqlashda grammatik aniqlik, leksik boylik va matnning mantiqiy bog'liqligi asosiy mezonlar sifatida belgilangan.³ Ushbu yondashuv yozma ko'nikmalarni rivojlantirishda texnologik vositalardan foydalanishni metodik jihatdan asoslab beradi.

Grammarly kabi sun'iy intellektga asoslangan avtomatik tahrirlash dasturlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ushbu vositalarning grammatik xatolarni aniqlash, punktuatsiya va stilistik aniqlikni oshirishdagi imkoniyatlari alohida qayd etiladi. Ghufon va Rosyida Grammarlydan foydalanish yozma ishlarning texnik sifatini yaxshilashga xizmat qilishini, biroq mazmuniy mustaqillik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda cheklangan imkoniyatlarga ega ekanini ta'kidlaydi. Ushbu fikrlar Grammarlyni yozma ko'nikmalarni rivojlantirishda yordamchi vosita sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.⁴

ChatGPT kabi yaratuvchi sun'iy intellekt modellariga oid zamonaviy tadqiqotlar esa ushbu vositalarning yozma nutqni shakllantirishdagi kengroq imkoniyatlariga e'tibor qaratadi. Polakova o'z tadqiqotida ChatGPT tomonidan berilgan yozma maslahat (feedback) o'quvchilarning matn strukturasi va o'z fikrini sabablar, dalillar va misollar orqali isbotlab berish sifatini yaxshilashga yordam berishini qayd etadi. Shu bilan birga, muallif sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni tanqidiy qayta ishlash va pedagogik nazorat ostida qo'llash muhimligini alohida ta'kidlaydi.⁵

² O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. "Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha rektorlar forumi". <https://gov.uz/oz/edu/news/view/110553>

³ Council of Europe. *CEFR Companion Volume with New Descriptors*. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020, pp. 58–60.

⁴ Ghufon, M.A., Rosyida, F. "The Role of Grammarly in Assessing English Writing." *Journal of English Language Teaching*, 2018.

⁵ Polakova, P. "The Impact of AI-Generated Feedback on Writing Development." *Education Sciences*, 2024, Article No. 112, Sections 3–4.

Alzahrani tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda AI vositalarining EFL o'quvchilar yozma ko'nikmalariga ijobiy ta'siri borligi, ayniqsa grammatik aniqlik va leksik boylik ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatilishi qayd etiladi. Biroq muallif AI vositalaridan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarning mustaqil yozish qobiliyatini cheklashi mumkinligini ham ilmiy jihatdan asoslaydi. Ushbu qarashlar sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda metodik muvozanat muhim ekanini ko'rsatadi.⁶

Sun'iy intellektning ta'limdagi umumiy roli masalasida Holmes, Bialik va Fadel AI'ni o'qituvchini almashtiruvchi texnologiya sifatida emas, balki ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi mexanizm sifatida talqin qiladi. Mualliflar AI texnologiyalari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini berishini, biroq pedagogik nazorat va didaktik maqsadlar ustuvor bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.⁷

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda ham raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalarining ingliz tili o'qitish jarayonidagi ahamiyati alohida qayd etiladi. Karimova AI asosidagi yozma topshiriqlar o'quvchilarning yozma faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirishini ta'kidlaydi.⁸ Baxtiyorova esa sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish o'qituvchining metodik nazorati ostida amalga oshirilishi zarurligini qayd etadi.⁹ Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt vositalarining yozma ko'nikmalarga ta'siri asosan grammatik va strukturaviy jihatlar doirasida o'rganilgan. O'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yozma faoliyati va akademik yondashuvlari bilan bog'liq masalalar esa yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. Mazkur holat sun'iy intellekt vositalarining yozma ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni va cheklovlarini yanada kengroq ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt vositalarining ingliz tili yozma ko'nikmalariga ta'siri murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u yozma nutqning turli bosqichlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi¹⁰. ChatGPT va Grammarly kabi vositalar yozma nutqni rivojlantirishda bir-birini to'ldiruvchi funksiyalarni bajaradi,

⁶ Alzahrani, F.K.J. "The Impact of Artificial Intelligence on Enhancing EFL Writing Skills." *Education Sciences*, 2024, Article No. 87.

⁷ Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education*. Boston: Pearson, 2019, pp. 45–47.

⁸ Karimova, A. "Sun'iy intellekt asosida yozma topshiriqlarni tashkil etish." *Inlibrary.uz*, 2025.

⁹ Baxtiyorova, D. "Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda pedagogik nazorat masalalari." 2025.

¹⁰ Council of Europe. *CEFR Companion Volume with New Descriptors*. Strasbourg, 2020, pp. 58–60.

biroq ularning pedagogik samaradorligi foydalanish maqsadi va nazorat darajasiga bevosita bog'liqdir¹¹.

Grammarly dasturining yozma nutqni rivojlantirishdagi asosiy funksiyasi grammatik aniqlik va texnik to'g'rilikni oshirish bilan bog'liq. Ghufiron va Rosyida tomonidan olib borilgan tadqiqotda Grammarly avtomatik tahrirlash vositasi sifatida o'quvchilarning grammatik xatolarini aniqlash va tuzatishda samarali ekani qayd etiladi. Shu bilan birga, mazkur vosita asosan texnik jihatlariga yo'naltirilgani sababli, mazmuniy mustaqillik va ijodiy yozma faoliyatni rivojlantirishda cheklangan imkoniyatlarga ega ekanligi ta'kidlanadi.¹²

ChatGPT esa yaratuvchi sun'iy intellekt modeli sifatida yozma nutqning yuqori darajadagi jihatlariga, xususan, matn tuzilishi, paragraf izchilligi va fikrni rivojlantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Polakova o'z tadqiqotida ChatGPT tomonidan taqdim etilgan yozma feedback o'quvchilarga matn strukturasi va argumentatsiyani yaxshilashda yordam berishini ko'rsatadi. Biroq muallif sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni tanqidiy qayta ishlash va pedagogik nazorat ostida qo'llash zarurligini alohida ta'kidlaydi.¹³ Alzahrani tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun'iy intellekt vositalarining EFL kontekstida yozma ko'nikmalarni rivojlantirishga ijobiy ta'siri borligi qayd etiladi. Xususan, grammatik aniqlik va leksik boylik ko'rsatkichlarida ijobiy tendensiyalar aniqlangan. Shu bilan birga, muallif AI vositalaridan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarning mustaqil yozish qobiliyatini cheklashi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi.¹⁴

Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi umumiy o'rni masalasida Holmes, Bialik va Fadel AI'ni o'qituvchini almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi mexanizm sifatida talqin qiladi. Mualliflarning fikricha, AI texnologiyalari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi, biroq pedagogik nazorat va didaktik muvozanat saqlanishi zarur.¹⁵

1-jadval. Sun'iy intellekt vositalarining yozma ko'nikmalarga ta'siri (adabiyotlar asosida)

¹¹ Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education*. Boston: Pearson, 2019, pp. 45–47.

¹² Ghufiron, M.A., Rosyida, F. "The Role of Grammarly in Assessing English Writing." *Journal of English Language Teaching*, 2018.

¹³ Polakova, P. "The Impact of AI-Generated Feedback on Writing Development." *Education Sciences*, 2024, Article No. 112, Sections 3–4.

¹⁴ Alzahrani, F.K.J. "The Impact of Artificial Intelligence on Enhancing EFL Writing Skills." *Education Sciences*, 2024, Article No. 87.

¹⁵ Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education*. Boston: Pearson, 2019, pp. 45–47.

№	AI vositasi	Asosiy ta'sir yo'nalishi	Ijobiy jihatlar	Cheklovlar	Manba
1.	Grammarly	Grammatik aniqlik	Xatolarni tez aniqlash, texnik sifatni oshirish	Mazmuniy mustaqillikka cheklangan ta'sir	Ghufron, Rosyida (2018)
2.	ChatGPT	Matn tuzilishi, argumentatsiya	Fikrni rivojlantirish, strukturani yaxshilash	Tayyor matnga qaramlik xavfi	Polakova (2024)
3.	AI vositalari (umumiy)	Yozma ko'nikmalar	Leksik boylik va aniqlikni oshirish	Mustaqil yozishga salbiy ta'sir ehtimoli	Alzahrani (2024)
4.	AI ta'limda	Pedagogik qo'llab-quvvatlash	Individual yondashuv	Nazoratsiz qo'llash xavfi	Holmes et al. (2019)

XULOSA

Mazkur review maqolada sun'iy intellektga asoslangan ChatGPT va Grammarly vositalarining ingliz tili yozma ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni va imkoniyatlari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritildi. Tahlil natijalari zamonaviy raqamli texnologiyalar yozma nutqni o'rgatish metodikasida muhim yordamchi omil sifatida qaralayotganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, Grammarly yozma ishlarning grammatik aniqligi va texnik sifatini yaxshilashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu dastur o'quvchilarga xatolarni aniqlash va ularni tuzatish imkonini berib, yozma matnning aniqligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, Grammarly asosan texnik jihatlariga yo'naltirilgani sababli, yozma nutqning mazmuniy va ijodiy tomonlarini rivojlantirishda cheklangan imkoniyatlarga ega ekani qayd etildi.

ChatGPT esa yozma nutqning yuqori darajadagi jihatlari — matn tuzilishi, paragraf izchilligi va fikrni mantiqiy bayon etish jarayonida yordamchi vosita sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu vosita yozma topshiriqlarni tushunish va matnni strukturaviy jihatdan tashkil etishda qo'llab-quvvatlovchi imkoniyatlarga ega ekanligi ilmiy manbalarda ta'kidlanadi. Biroq ChatGPT'dan nazoratsiz foydalanish o'quvchilarning

mustaqil yozish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ham umumlashtirildi.

Umuman olganda, sun'iy intellekt vositalari ingliz tili yozma ko'nikmalarini rivojlantirishda muayyan ijobiy imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish metodik muvozanat, pedagogik nazorat va akademik halollik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim. ChatGPT va Grammarly an'anaviy yozma mashqlarni to'liq almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki yozma ko'nikmalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi yordamchi didaktik vosita sifatida qo'llanilgandagina samarali bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alzahrani, F.K.J. "The Impact of Artificial Intelligence on Enhancing EFL Writing Skills." *Education Sciences*, 2024, Article No. 87.
2. Baxtiyorova, D. "Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda pedagogik nazorat masalalari." 2025.
3. Council of Europe. *CEFR Companion Volume with New Descriptors*. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020, pp. 58–60.
4. Ghufroon, M.A., Rosyida, F. "The Role of Grammarly in Assessing English Writing." *Journal of English Language Teaching*, 2018.
5. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education*. Boston: Pearson, 2019, pp. 45–47.
6. Karimova, A. "Sun'iy intellekt asosida yozma topshiriqlarni tashkil etish." *Inlibrary.uz*, 2025.
7. Khaydarova, S. T. (2024). *EUPHEMISMS: THEIR SCOPE, FUNCTIONS, AND APPLICATIONS IN EVERYDAY COMMUNICATION*. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(06), 64–75.
<https://doi.org/10.37547/mesmj-V5-I6-09>
8. Khaydarova, S., & Afruza, A. (2023). *Linguo-cultural education and its function in teaching language and culture*. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 2(2), 370-375.
9. Khaydarova, S., & Yokubjon, M. (2023). *Enhancing learning: The power of visual aids in teaching idioms*. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 2(2), 288-292.
10. Polakova, P. "The Impact of AI-Generated Feedback on Writing Development." *Education Sciences*, 2024, Article No. 112.

11. Shoir, K., & Umidovich, M. Y. (2022). The event of euphemism and its functions in speech. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(12), 401-405.
12. Xamzaev, A., & Khaydarova, S. T. (2021). Communication, interaction and management in a classroom. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(4), 557-563.
13. Xaydarova, S. (2025). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SINTAKTIK USULDA HOSIL QILINGAN EVFEMIK IFODALAR. *Scientific Practical Conference*, 1(1), 295-297. <https://d-pressa.com/index.php/spc/article/view/241>
14. Xaydarova, S. (2025). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MORFOLOGIK USULDA HOSIL BO'LGAN EVFEMIZMLAR. *Scientific Practical Conference*, 1(1), 314-318. <https://d-pressa.com/index.php/spc/article/view/142>
15. Xaydarova, S. (2021). EVFEMIZMLARNING TILSHUNOSLIKDA TADQIQ ETILISHI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
16. Xaydarova, S. (2021). INGLIZ VA O'ZBEK BADIY ASARLARIDA UCHRAYDIGAN EVFEMIZMLARNING QIYOSIY VA TARJIMAVIY TADQIQI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.